




TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA
BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOTLAR



*2025 - yil 1- fevral holatiga ko‘ra (fermer va
dehqon xo‘jaliklarisiz)*

Ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma‘lumotlar
bazasi asosida shakllantirildi



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025-yil 1-fevral holatiga Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 97,5 mingtani tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 85,9 mingta.

Shuningdek, ushbu davrga 150,6 mingta korxonalar ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,5 foizni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar soni to'g'risida umumiy ma'lumotlar

(1-fevral holatiga)

Ro'yxatdan o'tgan
(birlikda)

Faoliyat ko'rsatayotgan
(birlikda)

150 619 2025

2025 97 524

137 507 2024

2024 100 293

123 649 2023

2023 113 363

110 933 2022

2022 106 554

102 487 2021


2021 97 564

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2025-yil yanvar oyida)


2025-yil yanvar oyida Toshkent shahrida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 1,6 mingtani tashkil etdi.

Tarmoqlar kesimida tahlil qilinganda savdo sohasida – 562 ta, sanoat sohasida – 135 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 143 ta bilan eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etmoqda.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)





(2025-yil 1-fevral holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025-yil 1-fevral holatiga 97,5 mingtani tashkil etdi, ulardan 87,7 mingtasi tadbirkorlik subyektlaridir.


Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 32,0 foiz, sanoat – 11,1 qurilish – 6,9 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Mirzo Ulug'bek tumani – 11,9 foiz, Yunusobod tumani – 11,9 foiz, Chilonzor tumani – 11,7 foiz, Olmazor tumani – 9,1 foiz va Yashnobod tumanida – 9,1 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni
(birlikda)

Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2025 - yil yanvar oyida)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2025-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1512 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 502 ta;
- yirik korxonalar 10 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025-yil 1-fevral holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025-yil 1-fevral holatiga 87,7 mingtani tashkil etdi, ulardan 85,9 mingtasi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 35,6 foiz, sanoat – 12,3 foiz, qurilish – 7,6 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,7 foiz, tashish va saqlash – 4,6 foiz, axborot va aloqa – 5,6 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi – 2,2 foiz.

Yillar kesimida soni (birlikda)

Hududlar kesimida soni (birlikda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2025-yil yanvar oyida)

Mamlakat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili — kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir. Bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, qulay shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2025-yil 1-fevral holatiga)


Hududlar kesimida eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni Yunusobod tumani (11,7 foiz), Mirzo Ulug'bek tumani (11,7 foiz), Chilonzor tumani (11,6 foiz), Olmazor tumani (9,3 foiz) va Yakkasaroy tumani (9,2 foiz) ga to'g'ri kelmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

(2025-yil 1-fevral holatiga)

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning eng ko‘p qismi Mirzo Ulug‘bek tumani (16,0 foiz), Shayxontohur tumani (12,9 foiz) va Yunusobod tumanlarida (11,5 foiz) faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-fevral holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 11,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 93,3 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,6 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,6 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish va 1,5 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Olmazor tumani	1 311
Chilonzor tumani	1 212
Uchtepa tumani	1 080
Yunusobod tumani	1 017
Yashnobod tumani	1 000
Mirzo Ulug'bek tumani	966
Yakkasaroy tumani	866
Sirg'ali tumani	858
Shayxontohur tumani	843
Mirobod tumani	581
Yangihayot tumani	549
Bektemir tumani	531

Yillar kesimida soni (birlikda)



10 090

Ishlab chiqarish sanoati



390

tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



178

Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



156

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



(2025-yil 1-fevral holatiga)

O'zbekistonda qurilish sohasi iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan, zero "Bugungi bunyodkorlik — ertangi farovonlik".



Qurilish sohasining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 49,1 foiz ulushni tashkil etdi.
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 40,1 foiz ulushni tashkil etdi.
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 10,8 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Mirzo Ulug'bek tumani	865
Yashnobod tumani	797
Yunusobod tumani	778
Chilonzor tumani	747
Yakkasaroy tumani	694
Mirobod tumani	570
Olmazor tumani	480
Shayxontohur tumani	474
Sirg'ali tumani	405
Uchtepa tumani	366
Yangihayot tumani	339
Bektemir tumani	176

Yillar kesimida soni (birlikda)




(2025-yil 1-fevral holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 98,6 foizi yoki 30,8 mingtasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 40,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 51,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,5 foiz ulushni tashkil etdi

Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Yillar kesimida soni
(birlikda)



2 656

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

16 074

12 493

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

(2025-yil 1-fevral holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025-yil 1-fevral holatiga 5,9 mingtaga yetib, ularning 5,8 mingtasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:



- mehmonxonalar, turistik oromgo'harlar, dam olish va ko'ngilochar parklar faoliyati yashash bo'yicha xizmatlarning asosiy faoliyati hisoblanib, 2025-yil 1-fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 17,2 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish faoliyati, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 82,8 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Yakkasaroy tumani	745
Yunusobod tumani	699
Chilonzor tumani	694
Mirzo Ulug'bek tumani	658
Mirobod tumani	593
Shayxontohur tumani	518
Yashnobod tumani	498
Olmazor tumani	472
Uchtepa tumani	389
Sirg'ali tumani	286
Bektemir tumani	152
Yangihayot tumani	150

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-fevral holatiga)

2025-yil 1-fevral holatiga kompyuter dasturlash va aloqa yo'nalishidagi korxonalar va tashkilotlar, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 57,5 foizini;


Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish yo'nalishida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 35,5 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 7,0 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Yillar kesimida soni (birlikda)

Mirzo Ulug'bek tumani	904
Yunusobod tumani	755
Mirobod tumani	550
Chilonzor tumani	521
Yakkasaroy tumani	512
Shayxontohur tumani	507
Yashnobod tumani	432
Olmazor tumani	320
Uchtepa tumani	197
Sirg'ali tumani	113
Yangihayot tumani	73
Bektemir tumani	51



Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	2 381	455	Aloqa
Noshirlik faoliyati	907	844	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat
Kino-videofilmlar, televidion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	300	48	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish

(2025-yil 1-fevral holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 1 959 tasi yoki 89,0 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

- ushbu sohadagi korxonalar sonining 96,8 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;


- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 1,6 foizni tashkil etdi;

- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,6 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Yunusobod tumani	352
Mirzo Ulug'bek tumani	314
Chilonzor tumani	271
Olmazor tumani	238
Shayxontohur tumani	202
Yashnobod tumani	200
Uchtepa tumani	172
Mirobod tumani	118
Yakkasaroy tumani	124
Sirg'ali tumani	102
Yangihayot tumani	77
Bektemir tumani	32

Yillar kesimida soni (birlikda)



Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2 131

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

36

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

35

(2025-yil 1-fevral holatiga)

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Mirobod tumani	484
Yakkasaroy tumani	453
Mirzo Ulug'bek tumani	438
Chilonzor tumani	438
Yunusobod tumani	431
Yashnobod tumani	394
Olmazor tumani	336
Shayxontohur tumani	308
Sirg'ali tumani	263
Uchtepa tumani	238
Yangihayot tumani	137
Bektemir tumani	129

2025-yil 1-fevral holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami Toshkent shahridagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 4,1 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 42,2 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 47,9 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar va tashkilotlar soni 8,3 foizni;
- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 1,6 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

(2025-yil 1-fevral holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)


Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)



(2025-yil yanvar oyida)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Yunusobod tumani	165	Olmazor tumani	121
Chilonzor tumani	158	Yangihayot tumani	108
Shayxontohur tumani	145	Mirobod tumani	107
Yakkasaroy tumani	143	Uchtepa tumani	97
Mirzo Ulug'bek tumani	142	Sirg'ali tumani	73
Yashnobod tumani	127	Bektemir tumani	34

(2025-yil 1-fevral holatiga)


Amaldagi 87,7 mingta tijorat korxonalaridan 2025-yil 1-fevral holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 77,3 mingtani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkin, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 35,2 foiz, sanoat – 11,8 foiz, qurilish – 8,2 foiz.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Mirzo Ulug'bek tumani	9 288	Shayxontohur tumani	6 759
Yunusobod tumani	9 151	Mirobod tumani	6 710
Chilonzor tumani	8 907	Uchtepa tumani	5 540
Yakkasaroy tumani	7 443	Sirg'ali tumani	4 666
Yashnobod tumani	7 078	Yangihayot tumani	2 722
Olmazor tumani	6 889	Bektemir tumani	2 150

(2025-yil yanvar oyida)

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Hududlar kesimida soni (birlikda)

Chilonzor tumani	10	Uchtepa tumani	3
Yunusobod tumani	7	Mirobod tumani	3
Yashnobod tumani	5	Bektemir tumani	2
Mirzo Ulug'bek tumani	4	Yakkasaroy tumani	2
Shayxontohur tumani	4	Olmazor tumani	2
Yangiheyot tumani	4		


(2025-yil 1-fevral holatiga)

2025-yil 1-fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan: Chilonzor tumani – 912 ta, Uchtepa tumani – 901 ta, va Olmazor tumani – 811 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan: savdo sohasida – 3 056 ta, sanoat – 859 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 466 ta.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Chilonzor tumani	912	Yashnobod tumani	546
Uchtepa tumani	901	Sirg'ali tumani	417
Olmazor tumani	811	Yakkasaroy tumani	411
Yunusobod tumani	693	Mirobod tumani	378
Mirzo Ulug'bek tumani	628	Bektemir tumani	276
Shayxontohur tumani	609	Yangihayot tumani	162

(2025-yil yanvar oyida)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy ravishda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Yunusobod tumani	6	Mirzo Ulug'bek tumani	3
Sirg'ali tumani	6	Yashnobod tumani	3
Shayxontohur tumani	4	Uchtepa tumani	3
Yangihayot tumani	4	Chilonzor tumani	3
Mirobod tumani	4	Yakkasaroy tumani	3
Olmazor tumani	3	Bektemir tumani	1

(2025-yil 1-fevral holatiga)


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025-yil 1-fevral holatiga ko'ra 2,9 mingtani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,5 foiz, sanoat – 23,8 foiz, yashash va ovqatlanishni tashkil etish bo'yicha xizmatlar – 22,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 0,7 foiz, hududlar kesimda esa eng ko'p ulush Uchtepa tumani – 11,8 foiz, Olmazor tumani – 12,1 foiz va Yunusobod tumanida – 11,8 foiz oilaviy korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Olmazor tumani	355	Mirzo Ulug'bek tumani	224
Yunusobod tumani	346	Sirg'ali tumani	202
Uchtepa tumani	344	Yakkasaroy tumani	169
Shayxontohur tumani	302	Yangihayot tumani	168
Yashnobod tumani	277	Mirobod tumani	167
Chilonzor tumani	227	Bektemir tumani	143

Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

(2025-yil yanvar oyida)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.


Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

2025 - yil yanvar oyida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni o‘shish sur‘ati 2024-yilning mos davri bilan solishtirilganda 109,5 foizni tashkil etdi.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Yakkasaroy tumani	33	Yangihayot tumani	14
Mirobod tumani	27	Shayhontohur tumani	12
Mirzo Ulug‘bek tumani	25	Sirg‘ali tumani	9
Yunusobod tumani	22	Olmazor tumani	7
Chilonzor tumani	15	Uchtepa tumani	4
Yashnobod tumani	14	Bektemir tumani	5

(2025-yil 1-fevral holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Toshkent shahrida chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan jami 9 848 ta korxonalardan 2 232 tasi qo'shma korxonalar va 7 616 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Mirobod tumani	1 597	Shayhontohur tumani	678
Yakkasaroy tumani	1 538	Sirg'ali tumani	523
Mirzo Ulug'bek tumani	1 324	Olmazor tumani	461
Yunusobod tumani	1 087	Yangihayot tumani	318
Yashnobod tumani	922	Bektemir tumani	264
Chilonzor tumani	878	Uchtepa tumani	258

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun bir qator islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Yetakchi o'rinni 2 150 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu respublikada chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,8 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Xitoy (ulushi 19,2 foiz), Turkiya (ulushi 11,9 foiz), Qozog'iston (ulushi 8,7 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 4,4 foiz) davlatlari ham yetakchilardan hisoblanadi.



(2025-yil 1-fevral holatiga)

Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni ortib bormoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar jami soniga nisbatan eng katta ulushi Mirobod tumani 16,2 foiz, Yakkasaroy tumani – 15,6 foiz, Mirzo Ulug'bek tumani – 13,4 foiz va Yunusobod tumaniga – 11,0 foiz to'g'ri keladi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnoma tuzilishidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro’yxatga olingan – ro’yxatdan o’tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro’yxatidan o’tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo’lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).


Faoliyat ko’rsatayotgan – ro’yxatdan o’tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro’yxatidan o’tkazilgan hamda moliya-xo’jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to’g’risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro’yxatdan o’tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016-yil 24-avgustdagi** “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o’tish chora-tadbirlari to’g’risida” **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo’lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo’limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo’lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida **2025-yil 1-fevral** holatiga ko’ra (fermer va dehqon xo’jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

